# XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

# Q A R O R I

2025-yil 25-fevral VII-5-35-8-0-K/25 Surxondaryo viloyati

**Surxondaryo viloyatida 2025-yil uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy belgilangan daromad solig‘i stavkalarini tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 383-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2025-yilda yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy belgilanagn daromad solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar hamda fikr-mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

**1.** Viloyat Soliq boshqarmasining 2025-yil 21-yanvardagi 27-06542-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Abdullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov):**

yakka tartibdagi tadbirkorliklarning qat’iy belgilangan daromad solig‘i stavkalari yuzasidan viloyat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirsin hamda televideniye orqali ommaga taqdim etsin;

**har chorak yakunida** yakka tartibdagi tadbirkorliklarning qat’iy belgilangan daromad solig‘i bo‘yicha undirilgan to‘lovlar to‘g‘risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borsin.

**3.** Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining qat’iy belgilangan daromad solig‘i uchun Termiz shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), tuman (shahar) hududiy soliq organlari bilan birgalikda** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib, soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazorati o‘rnatilishini ta’minlasin va doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rsin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borsin.

**5. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga** mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, shahar

va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

**6.** Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

**7.** Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-5-35-8-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining qat’iy belgilangan daromad solig‘i stavkalari**

ming so‘mda

| T/r | Hudud nomi | Oziq-ovqat va nooziq ovqat chakana savdosi *(265-800 ming)* | Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chakana savdosi *(65-200 ming)* | Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi *(65-200 ming)* | Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari *(65-200 ming)* |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Termiz shahri | 800 | 200 | 200 | 200 |
| 2 | Angor tumani | 350 | 200 | 150 | 150 |
| 3 | Oltinsoy tumani | 265 | 200 | 150 | 150 |
| 4 | Boysun tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 5 | Muzrabot tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 6 | Denov tumani | 460 | 200 | 150 | 150 |
| 7 | Jarqo‘rg‘on tumani | 350 | 200 | 150 | 150 |
| 8 | Qumqo‘rg‘on tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 9 | Qiziriq tumani | 265 | 200 | 150 | 150 |
| 10 | Sariosiyo tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 11 | Termiz tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 12 | Sherobod tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 13 | Sho‘rchi tumani | 350 | 200 | 150 | 150 |
| 14 | Uzun tumani | 300 | 200 | 150 | 150 |
| 15 | Bandixon tumani | 265 | 200 | 150 | 150 |